

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.Xalikov</b>	
Ta'lrim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati .....	211
<b>A.A.Mirzayev</b>	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari .....	217
<b>S.A.Azamova</b>	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari.....	223
<b>M.I.Yusupova</b>	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
<b>M.M.Aralov</b>	
OTM talabalarining grafik tayyorgarliklagini rivojlantirish vositasi sifatida .....	235
<b>U.Abdullayeva</b>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lum va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili .....	124
<b>Y.J.Mirzaaxmedova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	241
<b>J.X.Boysunov</b>	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
<b>B.I.Beshimov</b>	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili.....	250
<b>Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova</b>	
Umumiy o'rta ta'lum maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monotoringi .....	255
<b>M.X.Raxmonova, M.O.Karimova</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbli va mohiyati....	260
<b>N.S.G'aurova</b>	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
<b>G.M.Kamalova</b>	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе .....	266
<b>R.M.Ubaydullayev</b>	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash .....	270
<b>A.K.Nafasov</b>	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida .....	274
<b>F.A.Ikramov</b>	
Mustaqil ta'lum faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta'lmini tashkil etishning pedagogik omillari .....	277
<b>D.T.Tursunova</b>	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari .....	281
<b>D.D.Boymirzaeva</b>	
O'zbekistonda oliy ta'lum muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili .....	286
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda OTMlar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari .....	292
<b>S.S.Qozaqova</b>	
Hikoya tuzishga o'rgatish mактабгача yoshdagи bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida .....	298
<b>F.A.Askarov</b>	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lum samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
<b>D.Z.Isaboyeva</b>	
Boshlang'ich ta'lum o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi) .....	308
<b>M.I.Ne'matov</b>	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish .....	311

**BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY POTENSIALINI  
PIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI VA MOHIYATI**

**АКТУАЛЬНОСТЬ И СУТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА  
УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL POTENTIAL OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS  
RELEVANCE AND ESSENCE**

**Raxmonova Mehrixon Xoshimovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

**<sup>2</sup>Karimova Mukaddas Otajonovna**

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, p.f.n<sup>2</sup>

**Annotatsiya**

*Mazkur maqlada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy potensialini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj, obyektiv baholash va o'z faoliyatiga strategik yondashish kasbiy ahamiyatiga ega bo'lgan shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'stirish, shakllantirishga doir fikrlar tahlil etigan.*

**Аннотация**

В данной статье проанализированы мнения о необходимости развития профессионального потенциала учителей начальных классов, объективной оценки и стратегического подхода к их деятельности по развитию профессиональных знаний и умений, а также формированию личностных качеств.

**Abstract**

*This article analyzes opinions on the need to develop the professional potential of primary school teachers, an objective assessment and strategic approach to their activities in the development and formation of professional personal qualities and skills, professional knowledge and skills.*

**Kalit so'zlar:** potensial, ehtiyoj, individual, integratsiya, altruizm, komponent proyeksiya, inversiya.

**Ключевые слова:** потенциал, потребность, личность, интеграция, альтруизм, компонент, проекция, инверсия.

**Key words:** potential, need, personality, integration, altruism, component, projection, inversion.

**KIRISH**

So'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lrim tizimida keng ko'lamli tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan erishilgan yutuqlarni muntazam boyitib borish, mavjud muammo va kamchiliklarni tezkor bartaraf etishda fidokorlik, shijoat, jonbozlik va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Bu talablar ulardan innovatsion rivojlanish, zarur axborotlarni yig'ish, saralash, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali joriy etishni taqozo etadi. Shu bois ham hozirgi kunda ta'lrim tizimining dolzarb vazifalari sifatida belgilandi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy potensialini rivojlantirish, avvalo, tizimli o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj, intilishiga, faoliyatning doimiy o'zgarib turadigan sharoitlarini uzlusiz «hayot davomida o'qish» tamoyiliga amal qilish bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarga nisbatan, o'qituvchining kasbiy pedagogik potensiali rivojlantirish kunning dolzarb vazifasidir. O'zini-o'zi rivojlantirish – bu, shaxsning o'zini o'zgartirish, uning ma'naviy ehtiyojlarini, ijodkorligini, barcha shaxsliy tashqi va ichki imkoniyatlarini ochish va boyitish, shuningdek, uning xarakterini, qobiliyatini va individualligini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini birlashtiradi. Ushbu o'zgarishlarning muhim jihatlaridan biri, uzlusiz pedagogik ta'lilda o'qituvchining tinimsiz ishslashni va izlanishni talab etadi.

Tajribali pedagog olimlardan A.K. Markova yondashuviga ko'ra, o'qituvchi faoliyati quyidagi to'rt yo'nalishdan iborat,

1. Kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallah;
2. Kasbiy pedagogik malakanı egallah;
3. Kasbiy psixologik ko'nikmalarni egallah;

### 4. Shaxsiy fazilatlar egasi bo'lish deb tushuntiradi.

Olimlar E.G'oziyev, M.G.Davletshin, N.V.Kuzmina bu muammoni psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqishni taklif etsalar, B.D.Elkonin, V.V.Serikov ijodiy harakat va uning mahsulotini ideal shakl fenomeni bilan bog'laydi.

Kasbiy potensialni rivojlantirish – bu, birinchi navbatda, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan, kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, integratsiyalash va pedagogik jarayonda qo'llash, o'zining shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarini, ichki dunyosini faol sifatli o'zgartirish, tubdan yangi tuzish va shakllantirish yo'lini to'gri tanlashdir. Professional o'zini-o'zi rivojlantirish – bu, shaxsnинг o'zini-o'zi proyeksiya qilishning dinamik va uzlusiz jarayonidir.

Bugungi kunda o'z kasbiy salohiyatini muntazam yangilab, boyitib bormasdan turib, yosh avlodga jamiyatning zamonaviy talablari darajasida ta'lrim-tarbiya berib bo'lmaydi. Umuman olganda, ayniqsa, boshlang'ich sihf o'qituvchisi o'zining umumiy pedagogik psixologik bilimlari hamda o'qitiladigan fan asoslari bo'yicha bo'shlqlarni ko'rmasa, kasbiy o'zini-o'zi tarbiyalashi mumkin emas. Kasbiy potensialni rivojlantirishda o'qituvchi o'zini-o'zi tarbiyalash va o'zini-o'zi takomillashtirish, o'zini-o'zi tahlil qilishga, obyektiv baholashga va o'z faoliyatiga strategik yondasha olishi kerak.

Kasbiy potensialning yuqoriligini o'z ustida tizimli ishslash orqali o'z kasbiy faoliyatida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan o'qituvchilar tajribasida ko'rish mumkin. Boshlang'ich sihf o'qituvchisining o'zini-o'zi takomillashtirishi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini aniqlashdan boshlanishi kerak. O'zini-o'zi takomillashtirishning yetakchi komponenti – bu, o'zini-o'zi tarbiyalash hisoblanadi. O'zini-o'zi takomillashtirish istagi va tajribasi o'zini-o'zi tarbiyalashning zaruriy sharti bo'lib, u o'z shaxsiyatining kasbiy fazilatlarini uchta yo'nalishda rivojlantirish uchun ongli mehnatni o'z ichiga oladi:

- individual, altruistik o'ziga xos xususiyatlarini pedagogik faoliyat talablariga moslashtirish;
- kasbiy malakani doimiy ravishda takomillashtirish;
- shaxsnинг ijtimoiy-axloqiy va boshqa xususiyatlarining uzlusiz rivojlanishi.

Kasbiy o'zini-o'zi boshqarish, boshqa har qanday faoliyat kabi, faoliyat motivlari va manbalarining ancha murakkab tizimiga asoslanadi. Odatda, o'qituvchining o'zini-o'zi tarbiyalashining harakatlantiruvchi kuchi va manbai o'zini-o'zi o'zgartirish va takomillashtirish zarurati keltirib chiqaradi.

Biroq, bu ehtiyojning o'zi jamiyatning o'qituvchiga qo'yadigan talablari bilan uning shaxs va kasbiy rivojlanishining hozirgi darajasi o'tasidagi ziddiyatlarni hal qilish zaruratidan paydo bo'lmaydi. Faoliyatning tashqi manbalari (jamiyat talablari) o'z ustida ishslashni rag'batlantiradi, yoki aksincha o'qituvchini hech bo'lmaganda uning ongida bu ziddiyatlarni olib tashlaydigan yo'l topishga majbur qiladi.

Psixologiyada bunday qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning ko'plab mexanizmlari ma'lum:

- **ratsionallashtirish** (lotincha, "rationalis" – aqlii, oqil) – biron-bir narsani takomillashtirish, yanada maqsadga muvofiq tashkillashtirish;
- **inversiya** (tartibini o'zgartirish);
- **proyeksiya** (lotincha, "projectio" – oldinga o'tish) – shaxs kimgadir yoki biror narsaga o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, motivlarini, xarakter xususiyatlarini bog'laydi, u nimanidir o'zidan emas, balki tashqaridan, ya'ni boshqa insonlardan izlay boshlaydi, "haqiqatdan qochish" va boshqalar.

O'qituvchi faoliyatining markazida, kasbiy o'zini-o'zi tarbiyalash, maqsad va motiv o'tasidagi qarama-qarshilik mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Motivning maqsadga o'tishi esa, o'zini-o'zi tarbiyalashga haqiqiy ehtiyojni uyg'otadi. Shunday ekan, o'qituvchining o'zini-o'zi tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoji, shaxsiy faoliyat manbai bo'lgan e'tiqod, burch, mas'uliyat, moslashuvchanlik, sog'lom, g'ururni chuqur ahglay olish bilan farqlanadi.

Demak, ehtiyojlar o'qituvchilarda kasbiy potensiallilikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyatga, ya'ni o'qish, o'rganish, o'z ustida ishslash va bilim olishga yo'naltiruvchi omil hisoblanadi.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday deya ta'kidlaydi:

– O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi.

Bularning barchasi o'zini-o'zi takomillashtirish uchun harakatlar tizimini keltirib chiqaradi, ularning tabiatи asosan kasbiy idealning mazmuni bilan oldindan belgilanadi. Boshqacha aytganda, pedagogik faoliyat o'qituvchining shaxsiy, chuqur anglab yetilgan qadriyatga ega bo'lsa, o'zini-o'zi takomillashtirish zarurati paydo bo'ladi, shundagina o'qituvchi kasbiy potensialni rivojlantiradi va o'zini-o'zi tarbiyalaydi. Shuningdek, uzlusiz kasbiy rivojlantirish jarayonida tashkil etiladigan mahorat darslari, o'zaro tajriba almashishlar ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z bilimlarini izchil boyitib borishga yordam beradi.

O'zini-o'zi tarbiyalash jarayonini rag'batlantiradigan tashqi omillarga o'qituvchilar jamoasi, maktabga rahbarlik qilish uslubi va bo'sh vaqt omili kiradi.

O'qituvchi, ayniqsa, o'zaro talabchanlik, tamoyillarga sodiqlik, konstruktiv tanqid va o'zini-o'zi tanqid, hamkasblarining ijodiy izlanishlariga alohida e'tibor qaratadigan pedagogik jamoada bo'lishi, uning kasbiy o'sishiga ta'sir qiladi, professional ideal talablarga javob berishga intiladi. Aksincha, o'qituvchilar o'rtasida nosog'lom muhit, tamoyillarning yo'qligi, ijodiy izlanishga e'tibor bermaslik va o'zini-o'zi tarbiyalash imkoniyatlariga shubha bilan munosabatda bo'lish muqarrar ravishda o'zini-o'zi takomillashtirishga bo'lган ehtiyojni yo'qotadi. Keyin bunday maktabda o'qituvchilar o'zini-o'zi tarbiyalashga ehtiyoj sezmaydilar.

E.G.Kalinkinaning fikriga ko'ra, "O'rganilayotgan muammoga bo'lган ishtiyoq o'qituvchilarining uslubiy faoliyatini izlanish va tadqiqot o'tkazishga yordam beradi, bu ularning kasbiy o'sishi uchun sharoit yaratadi", deb ta'kidlaydi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'qituvchilarining o'z kasbiga qiziqlishi, o'zini-o'zi tahlil qilishi natijasida fandagi yangiliklardan xabardor bo'lish, yangi metodlardan foydalanish hissi kuchayadi, albatta buning natijasida o'qituvchi o'z kasbiy potensialini rivojlantirishga o'zi sharoit yaratadi. Jumladan, malaka oshirish tizimida uzlusiz kasbiy rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan mahorat darslari ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z bilimlarini izchil boyitib borishga, yangi axborotlarni o'zlashtirishga, davr talablarini chuqur anglab yetishga, yangi bilimlarni izlab topishga, ularni qayta ishlash va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay olishga yo'naltiradi.

### XULOSA

O'qituvchining yuqori kasbiy potensialligi shunday malakalar yig'indisiki, uning natijasi o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk komil inson bo'lib yetishishida o'z aksini topadi. O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasasi mashg'ulotlarni ilmiy-metodik jihatdan puxta tashkil etish, rejalashtirish, amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq. Serharakatchanlik, mobillik bugungi ijtimoiy siyosiy borliqning, jamiyatlarning tub belgisidir. Bu talab kasbiy potensialni rivojlantirish omillarga ham, innovatsion izlanishlarga ham dinamizm baxsh etadi, ularni davr talablaridan, aholi ehtiyojlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'limgartbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sон Farmoni.
2. Raxmonova M.X. "O'zini-o'zi rivojlantirish va uzlusiz kasbiy rivojlanisning jamiyatdagи roli". O'quv qo'llanma – Farg'ona, 2023.
3. Raxmonova M.X. Boshlang'ich ta'limgardan innovatsion yondashuvlar// Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. Farg'ona – 2022.
4. Adolf Disterverg. Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma. (1835)
5. Калинина Е.Г. Накопительная система как форма повышения квалификации педагогов в условиях непрерывного образования // Нижегородское образование. № 1. 2010. С. 16-22.
6. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: б.и., 1996.- 306-с.
7. Гозиев Э.Г. Психологические основы развития самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов.: дисс. докт. псих. наук. – Ташкент, 1991. – 316 с.
8. Эльконин Б.Д. Введение в психологию развития (в традиции культурно-исторической теории Л.С. Выготского). — М.: Тривола, 1994. —168 с.